

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI O‘YIN TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA
TA’LIMGA ADAPTATSIYA QILISHNING PEDAGOGIK METODLARI**

Sultanov T. M.

CHDPU Boshlang‘ich ta’lim fakulteti o‘qituvchisi

Paxriddinova S. B.

CHDPU Boshlang‘ich ta’lim fakulteti

4- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limga adaptatsiya qilishning pedagogik metodlari foydalanish.*

Kalit so’zlar: *adaptatsiya, metod, yo’nalish, usul.*

Ushbu maqola muayyan darjada o‘quvchini shaxsini rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ta’lim – mustaqil ta’lim, tarbiya – o‘zini o‘zi tarbiya, ma’lumot – mustaqil ma’lumot, rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining tizimga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni yaxlit tizimning komponentlari sifatida inobatga olish mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘yin faoliyati davrida bolaning aqliy fazilatlari va shaxsiy xususiyatlari jadal rivojlanadi va shakllanadi. O‘yinda turli xil faoliyatlar mujasamlashadi, keyinchalik har bir faoliyat turi mustaqil ravishda o‘z ma’nosiga ega bo‘ladi. O‘yin faoliyati ruhiy jarayonlarning ham shakllanishiga ta’sir qiladi. Ayrim o‘yin turlari bolalarning barcha bo‘g‘inlariga mos kelishi mumkin, ya’ni jismoniy sifatlarni yaxlit holda tarbiyalashga qaratilgan o‘yinlar ham borki, ularda turli jismoniy sifatlar ketma -ket rivojlanishi mumkin²⁶. O‘yinlardagi bunday izchillik bolaning bilim saviyasi, dunyoqarashinig kengayishi, uning katta yoshdagи odamlarning turmushiga chuqurroq kirib borishi bilan bog‘liqdir. **Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limga adaptatsiya qilishda samarali bo‘lgan metodlar:**

1. Tushuntirish metodi. Mazkur metod yordamida hayotiy misollar, hayotiy voqeahodisalar yoki alohida shaxslarning xatti-harakatlari misolida ta’limga moslashuvning ijtimoiy ahamiyati, o‘quvchining har tomonlama rivojlanishi, dunyoqarashi, shuningdek, hayotiy maqsad hamda qadriyatlarining shakllanishidagi rolini yoritish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limga adaptatsiya qilish qaror toptiriladi. Boshlang‘ich ta’lim tizimida, odatda, o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mazkur metod yordamida ta’limning, o‘quv-bilish faoliyatining ijtimoiy ahamiyati hamda o‘quvchini shakllantirishdagi psixologik ta’siri qisqa, aniq va ravshan bayon etilishi zarur.

2. Hikoya metodi mazmunan tushuntirish metodiga o‘xshash bo‘lsa-da, biroq, unga

²⁶ Ikramov A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining harakatli o‘yinlarni o‘zlashtirishini axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanib takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiysi AVTOREFERATI. –Buxoro. BuxDU. 2021.-B. 12.

nisbatan keng va bat afsil ma'lumotlarni berish imkoniga ega. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilariga boshlang'ich ta'limda savod chiqarishning, ta'lim olishga moslashishning ijtimoiy hamda shaxsiy ahamiyati to'g'risida ma'lumot berishda ushbu metoddan ham samarali foydalaniladi.

3. Suhbat metodi. Ushbu metod boshlang'ich sinflarda o'quvchilar bilan o'qituvchi, ota-onalar yoki mutaxassis o'rtasida bevosita muloqotni tashkil etish orqali ularni boshlang'ich ta'limga adaptatsiyalash ko'nikamalari hosil qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodning afzalligi suhbat jarayonida o'quvchilar tomonidan ta'limga molashuv jarayoni, bu orqali ta'lim sifati va samaradorligi, boshlang'ich savodxonlikni qay darajada o'zlashtirilayotganligini baholab borish mumkin. Agarda, o'quvchilar berilayotgan material yoki ma'lumotlarni yetarli darajada o'zlashtira olmasalar, u holda qayta tushuntirish imkoniyati yuzaga keladi.

4. Kitob bilan ishlash metodi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh va psixologik xususiyatlariga ko'ra ma'lumot, bilimlarni eshitish retseptori yordamida emas, balki ko'rish retseptori orqali samarali o'zlashtiradi. Mazkur metoddan foydalanishda ularning ana shu xususiyatlari inobatga olindi va sinov ishlarini tashkil etish jarayonida bolalar adabiyotlaridan iborat ko'rgazmani tashkil etish, eng qiziqarli badiiy asarlarni o'qituvchi, kutubxonachi, ota-onalar hamda volontyorlar bilan birgalikda o'qishga alohida e'tibor qaratildi

5. Namoyish metodi. Mazkur metod o'yin texnologiyalari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limga adaptatsiya qilishga xizmat qiladi. Namoyish etishda bolalar uchun mo'ljallangan she'riy, ertak, sarguzasht asarlarda berilgan tasviriy ko'rgazmali vositalar-suratlar, foto rasmlar, applikatsiyalar, shuningdek, diafilm, kinofilm hamda prezentatsiyalardan foydalanish kutilgan natijaga erishishni ta'minlaydi.

6. Tasvirlash metodi. Ushbu metod ham birinchi sinf o'quvchilarini ta'limga adaptatsiya qilishga doir nazariy ma'lumotlarni obrazli tarzda tasviriy ko'rgazmali vositalar yordamida yoritishga xizmat qiladi. Tasvirlash metodi turli ko'rinishlarda qo'llaniladi.

7. Ekskursiya metodi. Bu metod birinchi sinf o'quvchilari tomonidan o'zlashtirilgan nazariy ma'lumotlarni mustahkamlash, boyitish maqsadida qo'llaniladi. Tadqiqotni olib borishda tajriba maydonlari bo'lgan maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamoa bo'lib mashg'ulotlarni olib borishlari maqsadida ekskursiyalar uyuşhtirildi

8. Namuna metodi. Ushbu metod boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarbiyaviy ta'sirning eng samarali metodi – namuna yordamida savod chiqarishga bo'lgan hurmatni tarbiyalash, o'qishga bo'lgan ehtiyojni qaror toptirish maqsadida qo'llanildi. Tadqiqot davrida boshlang'ich ta'limga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishda boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qituvchilar, taniqli shaxslar va ota-onalar ibrat (namuna) ko'rsatishlari mumkinligi inobatga olindi.

9. Mashq qildirish metodi. Bu metod barcha yoshdagি shaxslarda bo'lgani kabi boshlang'ich sinf o'quvchilarini ham tezkorlik bilar, ruhiy

7 – TOM 3 – SON / 2024 - YIL / 15 - MART

muammolarsiz ta’limga adaptatsiya qilishga yordam beradi. Sinov ishlari davrida o‘quvchilar bilan jamoaviy, guruhli va individual tarzda o‘yinlar vositasida mashg‘ulotlar olib borildi.

10. O‘yin metodi. Yosh va psixologik xususiyatlariga ko‘ra boshlang‘ich sinf o‘quvchilari insoniyat tomonidan orttirilgan ijtimoiy tajribani o‘z faoliyatlari yordamida samarali o‘zlashtiradi. YA’ni, ular ta’limga molsshauv jarayonlarini o‘yin elementlari bilan boyitilgan amaliy xatti-harakatlari asosida o‘zlashtirib boradir. Sinov ishlarini tashkil etishda o‘z mazmuniga ta’limga adaptatsiyalashishga yordam beradigan turli mualliflar tomonidan taklif etilgan, shuningdek, dissertantning shaxsiy ijodiy yondashuvi bo‘yicha asoslangan o‘yinlardan samarali, maqsadga muvofiq foydalanildi. “Ertaklar bilimdoni”, “Ertakni davom ettir!” kabi intellektual hamda “Kitoblar olamiga sayohat” nomli harakatli o‘yinlardan o‘rinli foydalanildi.

11. Rag‘batlantirish metodi. Ushbu metod boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida to‘g‘ri o‘qish, tezkor o‘qish, ifodali o‘qish va tushunib o‘qish qoidalariga rivoya qilish ko‘nikmalarini samarali shakllantirish maqsadida qo‘llanildi. Boshlang‘ich ta’limga hurmat bilan, ijobiy munosabatda bo‘lish o‘quvchilarning xatti-harakatlarini, kundalik faoliyatini bevosita hamda bilvosita kuzatish, baholash orqali ragbatlantirilib borildi. Sinov ishlari davrida o‘quvchilarning xatti-harakatlari rag‘batlantirishning ko‘ngilni ko‘tarish, dalda berish, ishonch bildirish, minnatdorchilik bildirish, e’tirof etish, mukofotlash kabi shakllaridan foydalanildi.

12. Savol-javob metodi. Mazkur metod o‘quvchilar tomonidan ta’limga moslув jarayoni, o‘quvchida ruhiy va jismoniy zo‘riqishlarni kuzatilmayotganligini baholash maqsadida qo‘llanildi. Metodni qo‘llashda o‘quvchilarning e’tiborlariga havola etilayotgan savollarning qisqa aniq, ravshan bo‘lishiga alohida e’tibor qaratildi. Tadqiqotni olib borishda ikki darajali savollandan foydalanildi. YA’ni: 1) tanib olishga oid savollar; 2) ajratib olishga oid savollar.

Maktab ta’limining dastlabki kunidan boshlaboq kichik maktab yoshidagi bolaning taraqqiyotini harakatga keltiruvchi, kuch vazifasini o‘tuvchi turli xususiyatga ega bo‘lgan ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, ichki ixtilof kabilalar vujudga keladi. Ushbu holat va vaziyat zamirida o‘quvchi shaxsiga, uning bilish jarayonlariga nisbatan o‘quv faoliyati, o‘qituvchilar va sinf jamoasi tomonidan qo‘yilayotgan talablar bilan bolaning psixik kamolot darajasi va undagi mavjud insoniy fazilatlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik yotadi. Talabning tobora ortishi bolaning psixik jihatdan to‘xtovsiv o‘sishini taqozo etadi va bu narsa boshi berk zanjirnnng uzlucksiz harakati natijasida inson taraqqiyotida amalga oshadi²⁷. Xulosa qilib aytganda, o‘yin ta’lim sifati va samaradorligini oshiruvchi, uni harakatga keltiruvchi kuchdir. Demak, o‘yin o‘quvchi-talabaning ichki ehtiyoji bo‘lib, ularda faollikni oshiradi, ruhiyatni ko‘taradi. O‘yin bolaning muloqotga kirishuvchanligini oshirib, uning rivojla-nishiga olib keladi. Buning

²⁷ G‘oziev E. Ontogenez psixologiyasi. –Toshkent.: O‘zMU. 2010. –B. 117.

oqibatida bola muvaffaqiyat qozonishga intiladi, uning ziy-rak, hushyor bo'lishga, zavqlanishga o'rganadi. U olamni bilish, o'rganish harakatida bo'ladi. Intizomli bo'lish, chaqqonlik, tez fikr yuri-tishga intiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'zligini namoyon qilish uning kundalik yashash tarziga aylanadi.

FOYDALABGA ADABIYOTLAR:

1. Colleman D. Emotional intelligences N. Y. Bantam Books,2005
2. Hayes J. Cognitive processes in creativity. In J.Glover, R.Ronning, C.Reynolds, *Handbook of creativity*, - New York: Plenum, 1989.
3. Klinger E. Structure of Fantasy and functions. New - York - London,2009.
4. Martindale C. Personality, situation and creativity. // Glover J.A., Running R.R. Reynolds C.R. (ads) *Handbook of creativity*. – N.Y.: Plenum. 1989.R. 211- 232.
5. Dilnoza, M. (2020). Technology for the development of cognitive competence in future teachers based on the acmeological approach. *EPRA International Journal of Research Development*, 5(3), 464-465.
6. Xaytmirzayevna, M. D., & Jasurbek, E. (2022). Acmelogical approach to preparation of future teachers. *Web of scientist: International Scientific Research Journal*, 3(4).
7. Asadov, T. H. (2023). NATURAL CHARACTERISTICS OF EXPRESSING SIGN AFFIXES-cha/larcha/chasiga,-an,-ona. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(23), 223-229.
8. Sirojiddinovna, H. D. (2024). The improvement of language skills (speaking, listening, reading, and writing) for self-directed learners. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(19), 231-236.
9. Sirojiddinovna, H. D. (2024). Inquiry-based learning: exploring methods that encourage students to ask questions and actively seek answers. *So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, 7(1), 143-148.
10. Dusnazarova, M. I. (2022). Legal Regulation of Marriage-Wedding Traditions in Modern Uzbekistan. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*, 1(11), 23-29.
11. Elamanovna, D. M. (2021, March). Works and environmental education. *Archive of Conferences*, 17(1), 79-80.
12. Salovey P. Mayer Y. D. Emotional intelligence \ Imagination, Conation and Personality. 2000 9 p. 185 -211.
13. Torrance, E. P. Experiences in developing creativity measures: Insights, discoveries, decisions. Manuscript submitted for publication. (2001).
14. Weisberg R. Creativity: Beyond the myth of genius. – New York: Cambridge University Press, 1993.
15. Cale L., Harris J. (2009). Fitness testing in physical education – a misdirect

7 – TOM 3 – SON / 2024 - YIL / 15 - MART

effort in promoting healthy lifestyles and physical activity. *Physical Education and Sport Pedagogy*, –Rr. 14, 89-108.

16. *National Core Curriculum for Basic Education 1994*. Government of Teaching. Helsinki: National Press, 109-110. [<http://www.oph.fi/english>]